HURMAT IFODALOVCHI MORFOLOGIK VOSITALARNING O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI QIYOSI

Qodirova Marg‘uba Bo‘riyevna
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“O‘zbek va jahon filologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: qodirovamarguba82@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida hurmat ifodalovchi morfologik vositalarning shakllanishi, qo‘llanishi va semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Unda har ikki tildagi hurmat ifodasining grammatik (ayniqsa, affiksal) vositalar orqali ifodalanish usullari o‘rganilib, ularning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *hurmat ifodasi, morfologik vositalar, qo‘shimchalar, affikslar, tilshunoslik, o‘zbek tili, ingliz tili, xushmuomalalik, daraja bildiruvchi shakllar,*

Аннотация: *В статье проводится сопоставительный анализ формирования, употребления и семантических свойств морфологических средств выражения уважения в узбекском и английском языках. Изучаются способы выражения уважения грамматическими (особенно аффиксальными) средствами в обоих языках, показываются их сходства и различия.*

Ключевые слова: *выражения уважения, морфологические средства, суффиксы, аффиксы, языкознание, узбекский язык, английский язык, вежливость, формы степени,*

Abstract: *This article provides a comparative analysis of the formation, use, and semantic properties of morphological means of expressing respect in Uzbek and English. It studies the ways in which respect is expressed through*

grammatical (especially affixal) means in both languages, and shows their similarities and differences.

Keywords: *expressions of respect, morphological means, suffixes, affixes, linguistics, Uzbek language, English language, politeness, forms of rank.*

KIRISH. Uslubshunoslikda morfologiya doirasidagi grammatik ko‘rsatkichlarda uslubiy imkoniyatlar chegaralangan, degan fikr mavjud. Bu mulohazani hatto V.V.Vinogradov, A.M.Peshkovskiydek taniqli tilshunoslar ham e’tirof etishgan. M.N.Kojina bu haqida quyidagilarni yozgan: “Morfologik vositalar leksik va so‘z yasovchi vositalardan farq qilib, ularga nisbatan kam darajada emotsional-ekspressiv, ammo u yoki bu shaklni og‘zaki-so‘zlashuv yoki ilmiy va rasmiy uslubga xos yozma-kitobiy doiralarda bo‘lgan an’analar bilan bog‘liq holda ko‘proq funksional bo‘yoq beradi”.

Adabiyotlar tahlili. Hurmat ifodalovchi vositalar, ayniqsa, morfologik darajadagi shakllar, tilshunoslikda muhim pragmatik va ijtimoiy funksiyani bajaradi. O‘zbek tilshunosligida bu boradagi dastlabki izlanishlar N. Mahmudov, Sh. Rahmatullayev, G’. Zokirov kabi olimlarning asarlarida ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zbek tilidagi hurmat bildiruvchi affikslar (masalan, -siz, -ingiz, -lari) ning grammatik vazifasi bilan birga, ularning sotsiolingvistik ahamiyatini ham ta’kidlaydilar.

Ingliz tilida esa hurmat ifodalari ko‘proq leksik va sintaktik vositalar orqali namoyon bo‘lishi tufayli, ushbu soha bo‘yicha G. Leech, R. Lakoff, P. Brown va S. Levinson kabi tilshunoslar tomonidan olib borilgan pragmatik tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Brown va Levinsonning “Politeness Theory” (Xushmuomalalik nazariyasi) ingliz tilidagi hurmat ifodalarining ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligini ochib beradi. Qiyosiy tadqiqotlar jihatidan esa, o‘zbek va ingliz tillarini qiyoslagan ishlar nisbatan kam uchraydi. Mavjud tadqiqotlar ko‘proq umumiy morfologik tizimga yoki

fonetik, sintaktik darajalarga qaratilgan. Masalan, A. Jo‘raevning qiyosiy grammatika sohasidagi ishlari grammatik strukturalarni solishtirsa-da, hurmat ifodasi kabi pragmatik jihatlar yetarlicha yoritilmagan. Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda (masalan, D. Karimov, M. Siddiqova) hurmat ifodasining milliy madaniyat bilan bog‘liqligi va tilga xos xususiyatlari qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi**.** tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillarida hurmat ifodalovchi morfologik vositalarning shakl, mazmun va funksional jihatdan o‘xshash hamda farqli tomonlarini aniqlash uchun **qiyosiy-tipologik** yondashuv asos qilib olindi.

Tahlil va natijalar**.** Tadqiqot davomida o‘zbek va ingliz tillarida hurmat ifodalovchi morfologik vositalarning shakli, qo‘llanilishi va vazifalari qiyosiy tahlil qilindi. Quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1.Morfologik tizimdagi farqlar:

O‘zbek tilida hurmat ifodasi ko‘proq **morfologik qo‘shimchalar** orqali amalga oshiriladi. Masalan:

-fe’llarga qo‘shiladigan hurmat shakllari: *boring, keling, ayting,*

-egalik qo‘shimchalari orqali: *kitobingiz, ismingiz, qarorlari*. Ingliz tilida esa morfologik shakllar cheklangan bo‘lib, hurmat ifodasi asosan **leksik-sintaktik vositalar**, ya’ni muomala shakllari (*sir, madam, please*), yordamchi fe’llar (*would you, could you*) va sarlavhalar orqali amalga oshiriladi.

2.Hurmat ifodasining grammatik vositalar bilan ifodalanish darajasi: O‘zbek tilida hurmat grammatik jihatdan chuqur shakllangan va har bir grammatik qatlamda (fe’l, ot, olmosh) o‘z aksini topadi. Ingliz tilida esa bu jihat sintaktik va pragmatik darajada ko‘proq namoyon bo‘ladi.

3.Shaxs va ijtimoiy maqomni ifodalash O‘zbek tilida 2-shaxsdagi so‘zlovchilar uchun maxsus hurmat shakllari mavjud (*siz, sizlar, ular*), bu esa ijtimoiy maqom, yosh va rasmiylik darajasini aks ettiradi. Ingliz tilida esa

"you" zamonaviy tilda universal bo‘lib, shaxsiy maqom farqlari ko‘proq intonatsiya va kontekst orqali beriladi.

4.Til va madaniyat munosabati: Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, hurmat ifodalari har ikki tilda ham milliy mentalitet va madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liq. O‘zbek tilidagi murakkab hurmat shakllari — jamiyatdagi hierarxiyani, oilaviy va ijtimoiy aloqalardagi muomala madaniyatini aks ettiradi. Ingliz tilida esa rasmiylik va xushmuomalalik odob-uslub doirasida ifodalanadi.

5.Umumiylik va tafovutlar: -Har ikki til hurmat ifodalarini muhim kommunikativ vosita sifatida ishlatadi.

-O‘zbek tilida bu ko‘proq **grammatik**, ingliz tilida esa **pragmatik** vositalar orqali ifodalanadi.

-Har ikki tilda ham ijtimoiy vaziyatga moslashish (adaptatsiya) asosida hurmat darajasi belgilanadi.

Morfologik shaklni tadqiq qilgan B.Mengliyev umumiy grammatik ma’noning asosini kategorial ma’no, umumiy grammatik ma’no tarkibiga kirib, mohiyatga mansub bo‘lmagan, ammo u bilan dialektik yaxlitlik hosil qilgan ma’noni yondosh ma’no, umumiy grammatik ma’no tarkibiga kirmaydigan, shakl mohiyatiga mansub bo‘lmagan ma’noni hamroh ma’no sifatida belgiladi va umumlisoniy ma’noni ochish yo‘lini aniqladi. Son miqdor ifodalashga ixtisoslashgan morfologik hodisadir. Ushbu miqdor ma’nosi “noaniq”, “aniq”, “sifat”, “bo‘linuvchan”, “bo‘linmas” kabi unsurlar bilan dialektik yaxlitlikda yuzaga chiqadi. Chunonchi, deylik *“–lar*” shakli miqdoriy ko‘plik ifodalar ekan, u bilan bir paytning o‘zida “bo‘linuvchi–bo‘linmaslik”, “noaniq” kabi belgini– yondosh ma’noni voqelantirib yuboradi.

Boshqacha aytganda, miqdor belgisi hech qachon sifat belgisiz yuzaga chiqmaydi. “*–lar*” shakli nutqda “hurmat” ma’nosini ifodalaydi.

Masalan: *Ustozimning kitoblari. Buvimning hassalari.* Ammo bu hamroh ma’nodir, ya’ni boshqa kategorial ma’noga mansub

ma’noning qorishib tajallilanishidir. Shuning uchun umumlisoniy ma’noni ochayotganda lisoniy birlik uchun zotiy bo‘lgan xususiyatning “yopishib” tajallilanishi, voqelanishini izchillik bilan kuzatish lozim bo‘ladi. Bu bir umumlisoniy ma’noga omonimik munosabatda bo‘lgan boshqa bir umumlisoniy ma’no mavjudligi to‘g‘risida xulosa chiqarishimizga ham imkon beradi.

Morfologik qayta bo‘linish jarayoni o‘zbek tilining hozirgi holatida ham kuzatiladi. Bunda ko‘p morfemali so‘z tarkibidagi affikslarning ma’no – vazifa jihatidan qayta taqsimlanishi jarayonlari yuz beradi. Sh.Rahmatullaevning ko‘rsatishicha, hozirgi o‘zbek adabiy tili tizimida yangi hurmat shaklining paydo bo‘lishi va hurmat kategoriyasi tegishli vositalari qatoriga qo‘shilishi ayni morfologik qayta bo‘linish tufayli yuz bergan. Olim bu jarayonni quyidagicha tasvirlaydi: Adabiyotlarda “*–lar”* ko‘p ma’noli bitta qo‘shimcha sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv tarixiy-etimologik nuqtayi nazardangina to‘g‘ri. Hozirgi til grammatik sistemasidan kelib chiqsak, yagona “*–lar”* affiksiniki deb keltiriladigan ba’zi ma’nolar ham mazmunan, ham vazifada mustaqillik kashf etganini ko‘ramiz. Ana shunday ma’nolardan biri – hurmat ma’nosi. Misollarni tahlil qilish ko‘rsatadiki, hurmat ma’nosini ifodalovchi *“–lar*” alohida affiks deb, son kategoriyasi va egalik kategoriyasi sistemasidan tashqarida turuvchi mustaqil shakl deb qaralishi lozim.

Zamonaviy ingliz tilida esa, ikkinchi shaxsda ko‘plik *("you” –sen* yoki *siz* bitta so‘z orqali) bilan neytral tarzda ifodalanadi, o‘zbek tilida esa *you (siz)* so‘zining ko‘plik shakli begonalar tomonidan qo‘llaniladigan hurmat belgisidir va ota-onaga va boshqa keksa oila a’zolariga murojaat qilish usuli deb qaraladi: *you are right, dad -siz haqsiz dada*. Ikkinchi shaxs birlikda *(san)* bolalarga yoki yaqin do‘stlarga murojaat qilishda ishlatiladi va boshqa holatlarda qo‘llanilsa qo‘pollik belgisi hisoblanadi. Rus tilida qoidalar o‘xshash, ammo yanada qulayroq va bolalar odatda do‘stlari va ota-onalariga *Ты* (birlik) deb murojaat qilishadi, *Вы* (ko‘plik) esa begonalar va

yoshi kattalar uchun qo‘llaniladi. Ingliz va o‘zbek tillarida kishilar suhbatlashyotganda xalaqit berish yoki suhbatni buzish qo‘pollik hisoblanadi.

Ingliz tilida asosan insonlarning kasbi, unvoniga qarab familiyalari orqali murojaat qilishadi*: Dr. Jones, Professor Saunders;* maktablarda esa ko‘pincha o‘qituvchilarning ismi bilan: *Miss Ann, Mr Smith, Mrs Smith* kabi ta’kidlab o‘tildi.

Lekin ba’zi til maktablarida, universitetlarda o‘qituvchilar o‘zlarining familiyalari bilan murojaat qilinishlarini afzal ko‘rishadi. Umuman har qanday tashkilot rahbariga ingliz tilida *boss* deb murojaat qilinadi. Ammo ko‘pgina so‘zlashuvchilarga bunday muomala qilish biroz g‘alatidek tuyuladi. Qulaylikni his qilish uchun ular uchun ham birinchi ismni qo‘llashadi. Bundan ham yaxshi usuli tanishgan inson taklif qilgan ism bilan murojaat qilishdir. Chunki ingliz madaniyatida qanday murojaat qilinishi tanishuvning avvalida aytib o‘tishadi va agar so‘ralgan nom bilan murojaat bo‘lmasa bu albatta qo‘pollik hisoblanadi. Masalan, dunyo bo‘yicha mashhur IELTS imtihonida gapirish (speaking) qismida ham qanday murojaat qilinishi salomlashgandan so‘ng so‘raladi. Ingliz tilidan farqli o‘laroq, boshqa masalan xitoy, yapon, rus tillarida hurmatni ifodalash uchun olmoshlar yoki o‘ziga xos yo‘llardan foydalanib o‘zidan yoshi ulug‘larga, oila a’zolariga murojaat qilishadi. Lekin ingliz tilida bunday olmoshlarni uchratilmaydi.

Ingliz tilida esa bunday holatda quyidagi iboralardan foydalaniladi: *Excuse me, I’m sorry to interrupt. Would you mind helping me...?Yoki, Excuse me, would you mind if I get past?* Balki, bu oddiy ko‘rinishi mumkin, lekin ingliz tilida *please, thank you* so‘zlari ham juda ham muhim hisoblanadi. Juda ham mayda va oddiy narsalarni bajarishni so‘ralganda ham mazkur so‘zlardan foydalanish kerak: *could you please pass me the salt?, thank you* yoki oddiygina *please pass the salt* va keyin *thank you* deyish kifoya qiladi.

Qolaversa, hurmatni faqat so‘zlar bilan emas harakatlar bilan ham ko‘rsatiladi. *Be on time*. *Be punctual* kabi so‘zlarni harakat orqali ifodalash kerakli joga vaqtida yetib borishdir. O‘zbeklarda kech qolish harakatiga juda ham ahamiyat berilmasa ham inglizlarda bunga jiddiy diqqat qaratilib, chuqur hurmatsizlik hisoblashadi. Har qanday xodim yoki ishchi kech qolishi mumkin, lekin bu haqida xabar jo‘natib oldindan ogohlantirishi zarur. Yana bir hurmat namunasi bu tinglash (listening) odobi bo‘lib, so‘zlovchi gapiryotganda tinglovchining telefonda suhbatlashishi, yoki boshqa narsa bilan band bo‘lishi qo‘pollikdir. Suhbatda navbat kelishini sabr bilan kutish hurmatning belgisi hisoblanadi.

Shuningdek, biror bir joyda navbatda turilganda, yoshi katta odamlarga o‘z navbatini berish ingliz va o‘zbek madaniyatida hurmat belgisi sanalsa, g‘arb madaniyatida hurmatsizlikdir. Agar kimdir siz bilan gaplashsa va siz uning ko‘ziga qaramasangiz, ular sizni nimanidir yashirmoqchi yoki sirli nimadir bor deb o‘ylashlari mumkin. Aksariyat inglizlar qo‘l berib ko‘rishadi. Agar biror millat vakilining dini yoki ijtimoiy qoidalari qo‘l berib so‘rashishni inkor etsa va shuning uchun o‘zini noqulay his qilsa, hardoim qo‘llarni birlashtirib, boshni oldinga egib salomlashish mumkin. Ushbu harakat yordamida ular inglizlar xushmuomalalik bilan qo‘l silkitishni xohlamasligingizni aytishingiz mumkin bo‘ladi.

Ulardan ba’zilari qo‘l siqishni istamasangiz, juda hayron bo‘lishadi, ammo bu yaxshi bo‘lib, O‘zini noqulay his qiladigan narsalarni qilishga xojat bo‘lmaydi. Barcha musulmon mamlakatlarida ayol va erkak qo‘l berib so‘rashish mumkin bo‘lmagan holatlardan hisoblanadi, yevropada esa ayol bilan erkak qo‘l berib ko‘rishish odatiy holdir. Yurtimizda yosh kelinchaklar hurmat-ehtiromning eng yaxshi namunalarini ko‘rsatmoqda. Demak, har qanday mamlakatlarda hurmat ifodalanishining verbal (og‘zaki) va non-verbal (og‘zaki bo‘lmagan) shakillari mavjud bo‘lib, ular

insonlarning madaniyatiga bog‘liq holda ifodalanadi. Ularbir biriga o‘xshashi va farq qilishi mumkin. Hurmat insonlarni tinch, osuda yashashi uchun ham o‘z hissasini qo‘shadi.

Ingliz tilida hurmatni ifodalovchi funksional-semantik maydon turli grammatik, pragmatik va paralingvistik vositalar uyg‘unligidan iborat. Ushbu maydonning asosiy maqsadi suhbatdosh bilan munosabatni uyg‘un va hurmatga asoslangan tarzda olib borishdir. Bularning barchasi nafaqat til qoidalariga, balki madaniy va kontekstual talablar hamda sharoitlarga mos ravishda amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar. O‘zbek va inglizlarda so‘zlashuv xulqi, muomala madaniyati bilan ajralib turadi. Yuqorida ko‘rib chiqqan asar tahlillaridan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek xalqi ham kattalarga hurmat va kichiklarga izzatga juda katta ahamiyat berishadi. Ingliz xalq madaniyatida hurmat etiket qoidalari sifatida amalga oshiriladi. Hurmat ifodalovchilar qonun-qoida sifatida qo‘llaniladi. Bu fikrni lo‘nda, aniq va obrazli qilib ifodalashda nutqimiz uchun juda ham zarur bo‘lgan vositalardan biri hisoblanadi. Binobarin, xalqning ko‘p asrlik ijtimoiy tajribasida ming martalab tasdiqlanib kelgan ibratli fikrlar har kun, har soat nutqimizga mazmuniy go‘zallik, o‘ziga xos jilo baxsh etadi. Umuman olganda, o‘zbek va ingliz tillaridagi hurmat ifodalovchilar orqali insonlar orasidagi ijtimoiy masofani va hurmatni uzoq vaqtlar davomida saqlanib qolishiga yordam ber

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mengliyev B., va boshq. *Hozirgi o‘zbek tili.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
2. Якубова Д, (2002)Teaching grammar for EFL students and its approaches. Involta Scientific Journal, 1(7), 265-268.
3. Kadirova M.B. “Hurmat kategoriyasining ingliz va o’zbek tilida lingvopoetik xususiyatlari.” Innovative, natural and social sciences, 2021. 1357-1362 betlar.

4. Қўнғуров Р. “Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари”. –Тошкент.: Фан, 1980 й. 12-13-бетлари.

5. Kadirova.M.B. “Artistic comparison of nonverbal means of respect in uzbek and English language”. Ilim sarchashmalari”Ilmiy uslubiy jurnal.5.1.2023 y. 185-188-betlar.

6. Oskouhi F, Movahed Mohammadi H,Rezvanfar A. The role of non-verbal communication on educational performance of faculty members of Agricultural Sciences and Natural Resources University in Sari. A paper presented in agricultural sciences and natural resources conference; 2013; Sari. Sari: Mazandaran; 2013. Persian. [Google Scholar.